

О‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDA AKTNING SAMARASI

Norqulova Guliston Ochilovna
Sardoba tuman kasb-hunar maktabining
Ishlab chiqarish ta’lim ustasi

“Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin”. F.S.Makarenkoning fikriga qo‘shilgan holda tarbiyachi yana quyidagi fazilatlarga ham ega bo‘lishi lozim: u avvalambor, yaxshi tarbiya topgan, shirinso‘z, samimiy, muhitni to‘g‘ri belgilay oladigan, aktyor, nafaqat aktyor balki rejissyor, yaxshi boshqaruvchi va albatta ta’limning so‘ngi yutuqlari bilan qurollangan, fan-texnikani yaxshi biladigan hamda tushunadigan, eng asosiysi, kompyuter ilmini mukammal tarzda bilmog‘i kerak.

Sababi oddiy, hozirda ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o‘quv jarayonida ta’lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o‘zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keldi.

Hozirgi kun o‘qituvchisi ta’lim-tarbiyaning yaratuvchisi, ham ustoz, ham shogird va qolaversa, axborot texnologiyalarini interaktiv taqdim etish bo‘yicha o‘ziga xos mutaxassis hamdir.

Eng qiziqarlisi shundaki, yillar o‘tishi bilan tilshunoslikda ro‘y berishi kuzatilgan yangi atamalarni kirib kelishi xodisasi bugungi kunda juda ham tezlashib ketdi. Birgina kompyuter tushunchasi bilan birgalikda yoki uning “qaramog‘ida” kerib kelayotgan atamalar talaygina bo‘lib qoldi:

Kompyuter, elektron pochta, sayt, elektron kutubxona, portal, internet, provayder, klaviatura, monitor, kursor, modem, gipermatn, fayl, slayd, “Word”, “Excel”, “Power Point”, disk... singari ko‘pgina yangi so‘zlar shular jumlasidandir. Binobarin, bu atamalar qanchalik tezlikda kirib kelmasin nafaqat pedagoglar, balki har qanday soha vakillari ham bilmog‘i, o‘rganmog‘i va albatta hayotga tadbiiq qila olmog‘i lozim.

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo‘llay olishi lozim:


– yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;

– internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;


– darsga metodik tayyorlanish, qo‘shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

– kompyuter texnologiyalari asosida darsni tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot–darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini engillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin (tarqatma materiallari va ko‘rgazmali qurollar sifatida ham 1-2-slaydlar).



1- slayd



2-slayd

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni rivojlantirishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish kerak. Ona tili va adabiyot darslarida elektron qo‘llanmalar, videolavhalar animatsiyalar, matnlar, ovozli obrazlardan foydalanish mumkin.

Axborot – kommunikatsion texnologiyalar(AKT) ma‘lumotlarni o‘zida to‘plash, saqlash, qayta ishlash, ulardan foydalanish vositalari orqali barcha sohalarida keskin rivojlanishga imkon yaratib beruvchi texnologiyalardir.

Ona tili darslarida AKTdan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

– o‘qituvchining fikri yoki darsning mohiyati bierzumda monitorida paydo bo‘lishiga;

– bir vaqtning o‘zida hamma jarayonni ko‘rish, o‘qish va eshitishga;

– o‘z-o‘zini o‘qitish, baho berish, kuzatish, kichik tadqiqot o‘tkazib ko‘rishga;

– eshitib ko‘rib, his qilib olingan bilimning uzoq muddatli va samarali bo‘lishiga;

– o‘qituvchining mustaqil ishlashi, yangiliklar yaratishiga, kasbiy mahoratini rivojlantirishga va vaqtni tejashga.